

**O‘ZBEK MUMTOZ MUSIQA SAN’ATINING ZABARDAST NAMOYONDASI -
KOMILJON OTANIYOZOV TIMSOLIDA**

Ruxshona Atkiyoyeva

*Farg‘ona Davlat universiteti San‘atshunoslik fakulteti “Musiq ta‘limi” yo‘nalishi 2-
bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada XX asrning atoqli ijodkorlaridan biri, xonanda, sozanda, aktyor o‘z davrining yetuk san‘atkori Komiljon Otaniyozovning mashaqqatli ijodiy yo‘li va hayotidagi keskin burilishlar haqida fikr va mulohazalar keltiriladi. Qolaversa, bugungi kunda ushbu ijodkorning nomini bardavom qilish maqsadida qilanayotgan say‘i harakatlar atroflicha ko‘rib chiqiladi.*

Kalit so‘zlar: *xonanda, aktyor, suvora, maqom yo‘llari, doston qo‘shiqlari, musiqali drama, film konsert*

XX asrning yetuk va zabardast ijodkori, xonanda va mohir aktyor Komiljon Otaniyozov 1917-yil 20-iyulda Shovot tumani, Bo‘yrachi qishlog‘ida tavallud topgan. Tor sozining mohir ijrochisi qolaversa, bir qancha asarlar muallifi, bastakor, O‘zbekiston (SSSR), Turkmaniston, Qoraqalpog‘iston xalq artisti. Nihoyatda jozibali va kuchli ovoz sohibi bo‘lib, har bir asar talqinida badiiy yetuklikka erishgan.

Otaniyozov 1930-yillardan murakkab xalq ashulalarini va dostonlardan qo‘shiqlar aytga boshlagan. Xorazm suvora va maqomlari Komiljon Otaniyozov ijrochilik faoliyatining yuqori bosqichi bo‘ldi. Komiljon Otaniyozov o‘zining novatorligi bilan ham qolganlardan ajralib turgan. Ya‘ni Xorazm doston qo‘shiqlari (nomalari) asosida yangicha uslub yaratgan. Bastakor sifatida bu uslubda ijod qilgan “Salom, senga Xorazmdan”, “Muborak”, “Vatan”, “Olqish”, “Temiryo‘l”, “O‘zbekiston”, “Xorazm” kabi qo‘shiqlari o‘zining ommabopligi va xalqchilligi bilan ajralib turadi.¹

O.A.Stepanov bilan hamkorlikda “Aziz va Sanam”, “Oshiq G‘arib”, S.Hayitboyev bilan “So‘nggi xon” kabi musiqali dramalar yaratdi. Bundan ko‘rinib turibiki, Otaniyozov nafaqat xonandalik va sozandalik bilan cheklanibgina qolmay ijod yo‘lini samarali va sarmazmun asarlar yaratish orqali ham ko‘rsata olgan. Ushbu serqirra ijodkor ko‘plab gastrol safarlarida bo‘lib, Xorazm ijrochilik maktabini keng targ‘ib qilishda o‘z hissasini qo‘shgan.

O‘z davrida “Xorazm bulbuli” taxallusini olishiga asosiy sabab uning ijodini asosiy qismi va asosiy ijrosi bevosita Xorazm ijrochilik maktabini keng targ‘ib qilinishiga sabab bo‘lgan.

Komiljon Otaniyozov o‘z she‘rlarining birida:

*“O‘ylasang o‘z baxtingni, el baxti birlan yor et,
Ey, Komil, nomingni sen yaxshilar ichra bor et”*

¹ Zokirjon Oripov. Sharq musiqiy manbashunosligi. O‘quv qo‘llanmasi.

- deb yozgan va bu hikmatini o'zining hayotiy e'tiqodiga aylantirgan shaxs edi. U



faqat o'z sozi va ovozi bilangina emas, balki go'zal insoniy fazilatlari bilan ham barchaga o'rnak va namuna bo'la olgan buyuk san'atkor edi. Uning san'atga fidoiyligi, to'g'riso'z va samimiyligi, odamlarga mehribonligi hanuzgacha tillarda doston bo'lib kelayotgani bejizga emas.

San'at vositasida xalqqa xizmat qilishni o'z hayoti, butun borlig'ining ma'no mazmuni deb bilgan Komiljon Otaniyozov qisqa umri davomida mumtoz musiqa san'atini yangi, yuksak bosqichga ko'tardi. O'zining g'oyat noyob, aytish mumkinki, ilohiy va sohir ovozi bilan o'zbek madaniyatini, o'zbek nomini butun dunyoga tarannum etdi.

Komiljon Otaniyozovning haqiqiy siymosi va ijodini ko'z-ko'z qiluvchi ajoyib asar bu uning film konserti hisoblanadi. Ana shu filmdan tashqari uning lavhalarda harakatlangan boshqa tasviri yo'q. Shuning uchun bu asar noyob va nodir lavha sifatida ma'naviy me'rosimiz xazinasiga aylangan. Ushbu "Film konsert" dasturi o'zining aytishuv yo'li bilan ham qolgan asarlardan ajralib turgan. Aytishuv jarayonlarining qiziqligi va mavzuning rivojlanishi bevosita tinglovchining ixtiyorini o'ziga torta olgan.

Ta'kidlanishicha, bu ulug' insonning yana bir unutilmas xizmati shundaki, u o'zining qalb qo'ri, mehr va sahovatini bag'ishlab, o'nlab iste'dodli shogirdlarni kamolga yetkazdi. Bugun nafaqat O'zbekistonda, balki qo'shni mamlakatlarda ham shuhrat qozongan ko'plab hofiz va san'atkorlar uni o'zlarining ma'naviy ustozlari deb biladilar. Qayd etilishicha, Ona yurt go'zalligini, Vatanga muhabbat, sevgi va sadoqat, ezgulik, mehr-oqibat kabi yuksak insoniy tuyg'ularni avj pardalarda kuylagan Komiljon Otaniyozov ham hofiz, ham sozanda, ham bastakor sifatida betakror ijodiy maktab yaratib, tarixda o'chmas iz qoldirdi. U yaratgan qo'shiqlar millionlab insonlar qalbidan chuqur joy egallab, xalq ijodi namunalariga aylanib ketgani ham bu ulug' san'atkorning qanday nodir iste'dod sohibi bo'lganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda ustoz san'atkor tug'ilib, voyaga yetgan Xorazm zaminida uning uy muzeyi tashkil etilgani, Shovot tumanida Komiljon Otaniyozov nomidagi madaniyat va istirohat bog'i rekonstruksiya qilinib, har tomonlama obod qilingani, Urganch tumanida hofiz xotirasiga atalagan bog' va ijod markazi barpo etilib, u zotning tabarruk siymosi aks ettirilgan yodgorlikning o'rnatilgani, Marg'ilon shahrining "Ijodkorlar bog'i"da joylashgan ko'rkam haykalning qo'yilgani e'tiborga loyoqdir. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev



tomonidan Komiljon Otaniyozovning 100 yillik yubiley tadbiri O'zbekiston bo'ylab keng nishonlandi.

Tabdirda Tashqi madaniyat va turizm vaziri va O'zbekiston Respublikasi madaniyat va turizm vaziri shaxsan prezident bilan birgalikda ishtirok etdilar. Ushbu tadbirda ishtirok etgan yosh va iste'dodli kadrlarni ko'rib barchaning dili quvnadi va bunday tabdirlarni yana keng isloh qilish bo'yicha turli takliflar o'rtaga tashlandi. Bundan bilish mumkinki, Xorazm bulbulining samarali ijodi nafaqat XX asr musiqa shinavdalarini, balki bugungi davrning 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan san'at shaydolarini ham o'ziga qiziqtirib, shaydo qilib ulgurgan. Ijodkorning nomini yanada bardavom qilish maqsadida, hududlarda joylashgan mahalla va ko'chalarga Komiljon Otaniyozov nomi berildi va u yaratgan asarlar ijro qilinishi majburiy bo'lgan repertuarlar ro'yxatiga kiritildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zokirjon Oripov. Sharq musiqiy manbashunosligi. O'quv qo'llanmasi.
2. Рустамбек Абдуллаев. Обряд и музыка в контексте культуры Узбекистана и Центральной Азии. Ташкент 2006-год.
3. A.Jabborov, S.Begmatov, M. Azamova. O'zbek musiqasi tarixi.
4. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOIIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. *Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan*, 1(2), 254-266.

5. Achildiyeva, M. (2023). QADIMGI DAVR CHOLG 'U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).

6. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. (2023). O 'ZBEK SAN'ATINING ZABARDAST HOFIZI JO 'RAXON SULTONOV. *DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY"*, 14(1).

7. Achildiyeva, M., & Sabina, B. (2023). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUSIQIY ATAMALAR. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 494-498.

8. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). O 'ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXO-ESTETIK AHAMIYATI. *Gospodarka i Innowacje.*, 34, 485-489.

9. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN'ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O 'RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 320-325.

10. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA " LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation*, 1(4), 23-28.

11. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). PROBLEMS OF PERFORMING MUSICAL STAGE WORKS (ON THE EXAMPLE OF THE OEUVRE OF UZBEK COMPOSERS). *Science and Innovation*, 1(4), 29-33.

12. Khojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of SI Taneev. *Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences*, 8, 87-89.

13. Hojimamatov, A. (2022). CHANG CHOLG 'USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 265-275.

14. Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). МУСИҚИЙ САҲНАВИЙ АСАРЛАРНИНГ ИЖРОЧИЛИК МУАММОЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН КОМПОЗИТОРЛАРИ ИЖОДИ МИСОЛИДА). *Science and innovation*, 1(C4), 29-33.

15. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).

16. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 344-352.

17. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). РЕЙНГОЛЬД ГЛИЭР ВА ТОЛИБЖОН СОДИҚОВНИНГ «ЛАЙЛИ ВА МАЖНУН» ОПЕРАСИДА МАҚОМ ЙЎЛЛАРИНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ. *Science and innovation*, 1(C4), 23-28.

18. Achildiyeva, M., Xojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Shashmaqom saboqlari:" Navo" maqomi xususida. *INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH*, 11(01), 55-58.
19. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. *Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry*, 12(10).
20. Achildieva, M., Ikromova, F., Abutolipova, M., & Khaydarova, O. (2021). The third renaissance towards ascending. *European Scholar Journal*, 2(9), 17-20.
21. Achildiyeva, M., Axmedova, N., Ikromova, F., Haydarova, O., Ibrahimova, G., & Abdurahmonov, A. (2021). TANBUR: ONE OF ANCIENT INSTRUMENTS. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9(6), 302-308.
22. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2020, December). THE PLACE OF UZBEK MUSIC IN THE ART. In *Archive of Conferences* (Vol. 10, No. 1, pp. 90-93).
23. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(10-2), 344-352.
24. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA " LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. *Science and Innovation*, 1(4), 23-28.
25. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN'ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O 'RNI VA AHAMIYATI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(5), 320-325.

